

BOLALARNI MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Tojiyeva Gulzoda Raximboyevna

*Qo'shko'pir tumani 10-son umumiy
o'rta ta'lim maktabi psixologi*

Matchanova Xosiyat Matnazarovna

*Qo'shko'pir tumani 7-son umumiy
o'rta ta'lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur mavzuda bolalarni maktabga psixologik tayyorlash jarayoni, uning asosiy bosqichlari hamda bu jarayonda oila va tarbiyachilarning o'rnini yoritiladi. Maktabga tayyorgarlik bolaning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liq muhim bosqich hisoblanadi. Maqolada psixologik tayyorgarlikni shakllantirish usullari va amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: maktabga tayyorgarlik, psixologiya, emotsional holat, ijtimoiy moslashuv, bilish jarayonlari, bola rivojlanishi.

KIRISH

Bolalarni maktabga psixologik tayyorlash ularning kelajakdagi ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlaydigan muhim bosqichdir. Bu jarayon faqatgina bilim berish bilan emas, balki bolaning ruhiy, emotsional va ijtimoiy jihatdan tayyorligini shakllantirish bilan ham bog'liq. Maktabga tayyor bo'lgan bola yangi muhitga moslasha oladi, o'qituvchi talablarini tushunadi va jamoada o'z o'rnini topa oladi. Buning uchun unda diqqat, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlari ma'lum darajada rivojlangan bo'lishi kerak.

Psixologik tayyorgarlikning muhim jihatlaridan biri — emotsional barqarorlikdir. Bola maktabga nisbatan qo'rquv yoki xavotir his qilmasligi, aksincha qiziqish va ijobiy munosabatda bo'lishi kerak. Bunda ota-ona va tarbiyachilarning qo'llab-quvvatlashi katta rol o'ynaydi.

Shuningdek, ijtimoiy moslashuv ham muhim hisoblanadi. Bola tengdoshlari bilan muloqot qila olishi, qoidalarga rioya qilishni tushunishi va jamoada yashash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bu esa uning maktab hayotiga tez va oson kirib borishiga yordam beradi.

O'yin faoliyatidan asta-sekin o'qish faoliyatiga o'tish ham psixologik tayyorgarlikning muhim bosqichidir. Bola o'yin orqali o'rganishdan bilim olishga yo'naltiriladi va asta-sekin o'quv faoliyatiga moslashadi.

Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon,

mustaqil, aqlli, o`qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi. Agar o`quvchi o`qishga ijobiy yondashsa, o`qishni xohlab, intilsa, ta`limdagi boshlang`ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bolish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega. Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobiy jihatlarining shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do`stona munosabato`rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi. Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlan-magani, zaifligi (aqliy, his-tuyg`uli, irodaviy yoki amaliy) maktabdao`zlashtirmaslikning sabablaridan bo`lishi mumkin. Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfda o`quv fanlarning (o`qish, yozuv, matematika) mazmuninio`zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko`nikmalarga ega bo`lishlari kerak. Masalan, matematikano`qitishdao`qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvnio`rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to`g`ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko`nikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarinio`zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi. Bola shaxsini rivojlantirishda ma`lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo`naltirish berishga alohida e`tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlashtirilgan, jadal o`qitish zarur hisoblanadi. Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega.

Agar shaxsni har tarafiama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo`llanilmasa, rivojlanish to`xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og`ir kechadi. 7 yosh bola yangi sharoitga tezo`rganadigan va o`qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Y.A. Kamenskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o`qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta`limtarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarada tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan. Maktabga tayyor bo`lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday obhavoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, uo`zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi. Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi voqeahodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalarni to`g`ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o`z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko`rgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6-7 yoshli bola oiladan tashqarida hamo`zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko`nikmalari o`z tengdoshlari bilan munosabatlar o`rnatishiga yordam beradi. Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o`rganishi

kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e'tibor bilan vaqtida bajarishi lozim. Bolada estetik idrokni shakllantirish, o'zining yoshiga mos badiiy asarlarga qiziqish uyg'otish, yon-atrofnı estetik jihatdan bezatishiga intilishini rivojlantirish kerak. Bola musiqa, adabiy so'z, rasmlarning chiroyini sezishni o'rganishi, ashula aytish, rasm chizish, yasash, topishmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak. Maktabga tayyor bo'lmagan bolaning qabul qilishi bola shaxsining rivojlanishiga har tomonlama yomon ta'sir etadi. O'qishdagi o'zlashtira olmasliklar bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabat tug'diradi. Uning jismoniy va ruhiy sog'lig'i ham xavf ostida. Ularda nevroz belgilari paydo bo'lishi mumkin: uyquning buzilishi, siydik ushlay olmaslik, bosh og'riqlari va boshqalar.

Tarbiyasida ham qiyinchiliklar paydo bo'la boshlaydi: bola qanday bo'lmagan o'ziga diqqat e'tiborni qaratmoqchi bo'ladi, yomon harakatlar qila boshlaydi. Agar bolaning tayyor emasligini vaqtida aniqlansa, bunday hollarning oldini olish mumkin bo'ladi. Bolaning maktabga tayyorligini turli sohadagi mutaxassislar aniqlay oladilar. Bolalar shifokori bolani tekshirib, somatik rivojlanishini aniqlaydi, agar ma'lum bir jismoniy, ruhiy kamchiligi bo'lsa, uni ruhiy-pedagogik tekshiruvga yuboradi. Ma'lum bir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar maxsus maktabga yuboriladi. 1 sentabrga qadar 7 yoshga to'lmagan, bolalar bog'chasiga bormagan, pedagogik qoloq, nutq kamchiliklari, jismoniy rivojlanish kamchiliklari bo'lgan bolalarni maxsus konsultatsiyalar, boshlang'ich sinfo'qituvchilari tekshirib beradilar. Tuman ruhiy-pedagogik konsultatsiyalarida bolaning maktabga tayyorgarligini har tomonlama aniqlashadi. Ular ta'lim-tarbiyadagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda profilaktik va koreksion usullarni tavsiya etadilar, tarbiya sohasiga oid maslahatlar beradilar. Bular bilan birga tuman mahalla qo'mitalari faol ishtirok etadilar. Bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etadigan ota-onalar bilan mahalla qo'mitalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar ishlashadi. Tuman ruhiy-pedagogik konsultatsiyalarida bolalarning maktabga tayyorligini aniqlashda psixologik testlardan foydalanadi. Testlarni mazmun jihatdan 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. O'qish jarayonida ishtirok etadigan alohida psixologik tomonlarning shakllanish darajasini aniqlaydigan testlar.
2. Maktabga umumiy tayyorgarlikni tekshiradigan testlar. Konsultantlar bolani ota-onalar oldida tekshiruvdan o'tkazadilar. So'ngra tekshiruvlar natijalari asosida quyidagi choralarni maslahat beradilar: umumta'lim maktabining 1-sinfiga yozish o'qishni 1 yilga qoldirish;
 - a) bolani bog'cha yoki maktab qoshidagi maxsus sinfga yozdirish;
 - b) bolani maxsus maktabga yozdirish. Konsultatsiyalarning xulosasi asosida mahalla qo'mitalarining maktab bo'limlari bola qayerdao'qishini hal qilishadi. Agar bola 7 yoshga to'lib, ammo uning sog'lig'i yaxshi bo'lmasa, unda tekshiruvlar

natijasiga ko'ra o'qish 1 yilga qoldiriladi. 1 yildan so'ng, bola qaytadan maxsus tekshiruvdan o'tadi va qayerda o'qishi hal qilinadi. Agar bola tarbiyasida ishtirok etadigan shaxslar unga alohida e'tibor ajratishsa, uning har tomonlama rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratib berishsa, yordam berishsa, o'qishdan qolgan muhlat ijobiy natija beradi. o'qishdan qolgan bolalar bilan ishlashda tarbiyachilar uchun hozircha maxsus dasturlar ishlab chiqilmagan. Pedagoglar bunday bolalar bilan mavjud bo'lgan Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya dasturi bo'yicha ishlashmoqda, faqat ularga ko'proq e'tibor ajratadilar. Maktabda o'qishni o'zlashtira olmaydigan bolalar uchun maxsus sinflar ochiladi. Bunday sinfda o'qishni vaqtincha o'zlashtira olmaydigan, normal intellektga ega bo'lgan bolalar o'qiydilar. O'qishdagi qoloqlikni individual mashg'ulotlar, alohida parvarish va maxsus kurs tartibi yordamida bartaraf etish mumkin. Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rishga jiddiy talablar qo'yilgan, shuning uchun bolani maktabga doimiy ravishda tayyorlash kerak. Tayyorgarlik o'z-o'zidan, avtomatik tarzda paydo bo'ladi. Faqat maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatga mo'ljallangan tarbiya jarayoni bolani maktabga yaxshi tayyorlanishiga olib keladi. Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolgungacha tayyorlashni kuchaytirish kerak deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak deb aytishadi. Ba'zi otalar bola bog'chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, debylashadi.

c) Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bog'cha tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga binoan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llaming mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo. Y.A. Kamenskiy o'zining «Onalar maktabi» kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab, o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Komenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.
2. Bolalarga maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.
3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish. Otaonalarning ko'pchiligi maktabda yaxshi o'qishning shartlaridan biri

shaxsning umumiy rivojlanishi deb hisoblashadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingi o'ringa bolaning o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi. Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabning hamkorlik ish rejasida quyidagilar bo'ladi. Avvalo avgust oyi boshida maktabgacha ta'lim muassasining psixologi, tayyorlov guruhi tarbiyachisi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi bolalari bilan olib boriladiganish rejasini tuzadilar va uni tasdiqlaydilar. Bunda albatta tayyorlov guruhi bolalariga maktab ta'limi haqida ma'lumotlar beriladi va ularda maktab haqida tasavvur va ko'nikmalar paydo qilish ishlari olib boriladi. Yilning sentabr oylarida mustaqilligimiz yubileyi, bilimlar kuni tadbirlarida bolalarning chiqishlari bilan ishtirok etish va bu tadbirlarga hamkorlik qilinayotgan maktab direktori, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ham taklif etish va ularning ishtirokini ta'minlash rejalashtiriladi.

Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi.

Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug' unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.

Yuqorida izohi keltirib o'tilgan markazlar faoliyati bolani maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhit vazifasini bajarib, shu o'rinda 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik xaritasini ilova qilib o'tishni joiz deb bildik. Zero, mazkur yoshdagi bolaning rivojlanish xaritasi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatligi va samaradorligini aniqlaydi. Masalan boladagi,

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari
4. Bilim olish (anglash orqali rivojlanish)
5. Ijodiy rivojlanish kabilar uni maktab muhitiga tayyorlovchi asosiy

me'zonlar sanaladi.

Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorlash.

Maktabga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik - bu bolani maktabni muvaffaqiyatli boshlashi kerak bo'lgan aqliy fazilatlar to'plami.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning so'rovini o'tkazgan psixologlar maktabda psixologik tayyorgarlik ko'rishga tayyor va tayyor bo'lmagan bolalar maktabini qabul qilishdagi farqni qayd etishadi.

Maktabda psixologik tayyorgarlikni barpo etgan bolalar, asosan, o'qishning haqiqati bilan qiziqib qolishgan. Kamroq darajada ular jamiyatdagi o'z pozitsiyasini o'zgartirish, o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lish ehtimoli (portfel, noutbuk, qalam ishi), yangi do'stlar topishi bilan shug'ullandi.

Lekin psixologik jihatdan tayyor bo'lmagan bolalar o'zlariga kelajak haqida hayratlanarli rasmni qaratdilar. Ular, avvalambor, o'z hayotlarini yaxshiroq o'zgartirishga imkoniyat yaratdi. Ular, albatta, mukammal sinflarga, do'stlarning to'liq sinfiga, yosh va chiroyli o'qituvchilarga ega bo'lishlarini kutishdi. Albatta, bunday umidlar maktabning dastlabki bir necha haftasida muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Natijada, maktab kunlari bu kabi bolalar uchun muntazam ravishda va hafta oxiri doimiy ravishda kutib turdi.

Maktabga psixologik tayyorgarlikning komponentlari

Maktabga psixologik tayyorgarlik mezonlarini keltiraylik. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✦ motivatsion;
- ✦ aqliy (bilim);
- ✦ kuchli irodasi;
- ✦ kommunikativ.

Birinchi, bolaning ta'lim olish istagi va o'quvchi bo'lish orzusi, ya'ni yangi ijtimoiy mavqega ega bo'lishi uchun maktabga borish uchun bunday sabablar bo'lishi kerak. Maktabga bo'lgan munosabat ijobiy bo'lishi kerak, lekin aniq.

Ikkinchi, bola etarli fikrlash, xotirani va boshqa bilim jarayonlarini rivojlangan bo'lishi kerak. Ota-ona, maktabga kerakli bilim va ko'nikmalarni berish uchun bolaga murojaat qilishlari kerak (hech bo'lmaganda 10 songacha, o'qituvchi tomonidan o'qish).

Uchinchi, bola maktabda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'z xulq-atvorini ixtiyoriy ravishda nazorat qilishi kerak. Axir, maktabda u o'qituvchini sinchkovlik bilan tinglashi, uy vazifasini bajarishi, qoidaga va namunaga ko'ra ishlashi va intizomga rioya qilishlari kerak.

Agar birinchi sinfga o'tish vaqti yaqinlashib qolsa va o'g'lingiz yoki qizingiz sizning fikringizcha, bu psixologik jihatdan hozircha tayyor bo'lmasa, bolangizga

o'zingizga yordam berishga yoki psixologiya o'qituvchisidan yordam so'rashga harakat qilishingiz mumkin.

Bugungi kunda mutaxassislar maktabga psixologik tayyorgarlik bo'yicha maxsus mo'ljallangan dasturlarni taklif qilishadi. Sinfga borishda, bolalar:

- ✦ ta'lim vazifasini tushunishga o'rganish, uni bajarish;
- ✦ grafik va matematik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ✦ tushunchalarni umumlashtirish, tasniflash va shakllantirish qobiliyatini oshirish;
- ✦ mantiqiy fikrlash va og'zaki mexanik xotirani rivojlantirish;
- ✦ belgilangan normalarga muvofiq faoliyatni o'zboshimchalik bilan tartibga solish qobiliyatiga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarni maktabga psixologik tayyorlash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u oila, maktabgacha ta'lim muassasalari va psixologlarning hamkorligini talab etadi. To'g'ri tashkil etilgan tayyorgarlik bolaning maktab hayotiga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D.R. Babaeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: "Barkamol avlod fayz" 2018 y. Darslik.
2. Takomillastirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, T- 2022 y.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. "Ўзбекистон"
4. Азизова Зироат. "CONSEPTUAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL PROTECHION" Yosh tadqiqotchi Jurnal 1 (5) 404-410, 2022
5. Azizova Ziroat Bahodirovna "THE IMPORTANCE OF ORGANIZING CHILDREN'S ACTIVITIES IN PREPARATION FOR SCHOOLING." Open Access Repository 9.11 (2022): 236-240. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE 2022 Boston, USA 53
6. Z.Azizova , Z.Abdurazakova "Legal and Pedagogical Bazes of Preparation of Children for the Implementation of Socal Protection" Yosh Tadqiqotchi Jurnal 1(5) 395-403.2022
7. N.G.Malikovna CONTENT AND PEDAGOGIKAL CONDITIONS FOR THE DEVELEOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENSE OF TEACHERS AND EDUCATIONAL ORGANIZATIONS International journal of socials cience interdisciplinary research ISSN 2022
8. N.G.Malikovna Formation of a sense of national pride amonig in oider preschool children through oral foik art-as a socio-pedagogical necessity Science and Innvation 1 (8) 20672077,2022

9. N.G.Malikovna . “Bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalarning o'rni”.Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari 1 (2) 100-105,2023
10. G.M Nazirova, D.R.Djo'rayeva, H.M.Tojiboyeva, “Modern trends in education for Children of preschool age” Methodological manual 2015
11. ZIYO.NET

